

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash

Bugungi kunga kelib xalqaro terrorism, narkotrafik va odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarning inson xavfsizligiga xuruj qilayotgani bois, ulardan jabr chekayotganlar, afsuski, ko'pchilikni tashkil etayotganligi, hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatlarning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bugun ham talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar jinoyatchilik va spirtli ichimlik iste'mol qilishning oldini olish maqsadida hamda ma'naviy ishlar samaradorligini oshirish uchun huquq-targ'ibot organlari bilan hamkorlikda "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan soha xodimlari Toshkent shahar Yunusobod tumani IIB Voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektori Do'stov Xayrulla hamda Yunusobod tumani IIB Voyaga yetmaganlar bo'yicha leytenant Narinboeva Dilnozalar so'zga chiqib, yoshlarni boshqa davlatlarda kechayotgan noxush voqealar hamda tartibsizliklardan voqif etish emas, balki o'z tinchligimizning qadriga yetish, uni har qanday tahdidlardan asrab-avaylash ekanligini ta'kidladi. Shuningdek, bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz spirtli ichimliklarga ruju quyayotganligi va buning natijasida turli jinoyatlar sodir etayotganli to'g'risida ham talaba-yoshlar tushunchalar berib o'tishdi. Har qanday urush begunoh aholining qiyinchiliklari va iztiroblari bilan tugaydi, lekin bu kabi tartibsizliklarga ayrim kimsalar bundan faqat moddiy manfaat topish uchungina qo'l uradilar. Biz bu tinchlikka osonlik bilan erishganimiz yo'q shuning uchun endi uni qadrlashimiz, asrashimiz kerak va zarurligini, O'zbekistonimizni asrash, uning tinchligini barqarorlashtirish esa yoshlarning qo'lida ekanligi to'g'risida ham tushunchalar berib o'tdi.



Tadbir yakunida talabalarni qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan to'liq va aniq javoblar berildi. Shundan so'ng Fakultet dekani Sh. Narbaev ham fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari H.Eshova barcha tadbir ishtirokchilariga o'z minnatdorchiligini bildirgan holda tadbirni yakunladi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti